

## **IJTIMOYIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI**

**Abdiyeva Marg‘iyona**

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti 1- bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: Mamatqulov Eldor Safarovich,**

Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrası o‘qituvchisi, fal.f.f.d (PhD)

*“Davlatning oliy maqsadi — barcha fuqarolarni baxtli qilishdir.”*

*— Aristotel*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu matnda ijtimoiy davlat tushunchasining shakllanish bosqichlari, uning tarixiy-falsafiy asoslari va zamonaviy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif antik davr mutafakkirlari Platon va Aristotelning adolatli jamiyat haqidagi qarashlaridan tortib, Sharq uyg‘onish davri vakili Abu Nasr Forobiyning baxtli jamiyat konsepsiyasi hamda Amir Temurning ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimini tadqiq etadi. Maqolada ijtimoiy davlat — bu inson qadri, ijtimoiy himoya va umumiy farovonlikni kafolatlovchi oliy tuzilma ekanligi hamda uning bugungi O‘zbekiston islohotlaridagi ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Ijtimoiy davlat, Platon, Aristotel, Forobiy, Temur tuzuklari, Yangi O‘zbekiston, Mustaqillik.*

### **ABSTRACT**

*This text analyzes the stages of formation of the social state concept, its historical and philosophical foundations, and its role in modern development. The author explores ideas of a just society ranging from ancient thinkers like Plato and Aristotle to Abu Nasr Al-Farabi’s conception of the "Virtuous City" and Amir Temur’s governance based on social justice. The article emphasizes that a social state is a supreme structure guaranteeing human dignity, social protection, and general welfare, highlighting its significance in the ongoing reforms of modern Uzbekistan.*

**Key words:** *Social state, Plato, Aristotle, Al-Farabi, Tamerlane’s Institutes, New Uzbekistan, Independence.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной работе анализируются этапы формирования, историко-философские основы и роль социального государства в современном развитии. Автор исследует взгляды античных мыслителей Платона и Аристотеля о справедливом обществе, концепцию счастливого общества Абу Насра Аль-Фараби, а также систему управления Амира Темура, основанную на*

*социальной справедливости. Освещается суть социального государства как высшей структуры, гарантирующей достоинство человека, социальную защиту и всеобщее благосостояние в контексте реформ Нового Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *Социальное государство, Платон, Аристотель, Аль-Фараби, Уложения Темура, Новый Узбекистан, Независимость.*

## **KIRISH**

Insoniyat o‘z rivojlanish evolyutsiyasi davomida ijtimoiylashib bordi. Bu holat insonlardagi davlatchilik haqidagi fikrlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Inson manfaatlarini mujassamlashtiradigan ijtimoiy davlatchilik shakli- ijtimoiy davlatdir.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida, xususan, yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat qurish masalasi eng ustuvor strategik vazifaga aylandi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy davlat — bu shunchaki iqtisodiy yordam ko‘rsatuvchi tuzilma emas, balki har bir insonning qadri, uning munosib yashash sharoiti va ijtimoiy himoyasi qonun bilan kafolatlangan oliy saodat maskanidir<sup>1</sup>. Ushbu murakkab va serqirra tushunchaning tarixiy ildizlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak hozirgi davrda yurtimizdagi olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi va ularning tub mohiyatini to‘g‘ri anglashga imkon beradi.

Ijtimoiy davlatchilik shakllari haqidagi tarixiy-ilmiy fikrlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, qadimgi Yunonistonda xususan Platon asarlarida ijtimoiy davlatchilikka oid quyidagicha fikrlarni uchratishimiz mumkin. Antik davrdagi ijtimoiy fikrlarga falsafiy nazar tashlaydigan bo‘lsak, Platonning adolatli davlat haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. U o‘zining mashhur "Davlat" asarida jamiyatning barqarorligini ijtimoiy tabaqalarning o‘zaro uyg‘unligida ko‘radi. Platonning ijtimoiy-falsafiy qarashlariga e‘tibor qaratadigan uning "davlat — bu yaxlit organizm" degan fikriga alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Uning nazdida, agar jamiyatning bir a‘zosi qiynalsa, butun davlat inqirozga yuz tutadi. Bu esa zamonaviy ijtimoiy birdamlik (solidarity) tamoyilining ilk kurtaklari ekanligidan dalolat beradi. Platon fikricha davlat boshqaruvida shaxsiy manfaatlardan voz kechib, umumiy farovonlik yo‘lida xizmat qilishni oliy fazilat deb bilgan<sup>2</sup>.

Shuningdek, Platonning zamondosh Arastu qarashlarida ham ijtimoiy davlatchilikka oid fikrlarni uchratishimiz mumkin. Aristotelning ijtimoiy qarashlarida bu g‘oyalarni yanada hayotiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslar bilan boyitgan. Arastu o‘zining ijtimoiy davlatchilikka oid asarlarida davlatni fuqarolarning nafaqat yashashi,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T:” O‘zbekiston”, 2023

<sup>2</sup> Platon. Davlat. – T.: “O‘zbekiston”, 2013. – B. 225-230.

balki "yaxshi yashashi" va baxtga erishishi uchun tashkil etilgan ittifoq deb ta'riflaydi<sup>3</sup>. Aristotelning ijtimoiy davlatchilikka oid quyidagi fikri mavjud, ya'ni: davlatda o'ta boylar va o'ta kambag'allar o'rtasidagi farq qancha katta bo'lsa, jamiyat shuncha notinch bo'lishini uqtirgan. Bizning fikrimizcha, Aristotel o'sha davrdayoq "o'rtahol qatlam" (middle class) ijtimoiy barqarorlikning asosiy tayanchi ekanligini ilmiy isbotlab bergan. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, har qanday davlatning iqtisodiy harakatchan kuchi bu - o'rta qatlamidir. Uning "Siyosat" asaridagi g'oyalar bugungi kunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish siyosati bilan hamohangligini o'z davri nuqtai nazari bilan asoslab berganligi muhim ahamiyatga ega.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharq allomalarining falsafiy qarashlarida ham ijtimoiy davlatchilikka oid fikrlarini uchratishimiz mumki. Xususan, "Sharq Aristoteli" nomi bilan mashhur Markaziy Osiyolik mutafakkir Abu Nasr Forobiy qarashlarida ham ijtimoiy davlatchilik asoslarining sharqona ildizlariga to'xtalib o'tgan. Abu Nasr Forobiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalari ijtimoiy davlatchilikning ma'naviy olamiga olib kiradi. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatini "o'zaro yordam va muhabbat" mezonlari asosida tasvirlaydi. Bu davrdagi Forobiyning eng buyuk xizmati — davlat rahbarining asosiy vazifasi xalqni baxtli qilishdan iborat ekanligini qat'iy belgilab berganidadir. Uning fikricha, insonlar faqat birlashib, bir-birlarining ehtiyojlarini qondirish orqali kamolotga erishadilar<sup>4</sup>. Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi fikrlari zamonlar o'tsa hamki, o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Misol uchun, uning bu fikrlari asosida yurtimizda ko'plab sohalarda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan "mahallabay" ishlash tizimi va ijtimoiy hamkorlik tamoyillariga juda yaqindir.

O'zbek davlatchiligida yorqin iz qoldirgan, II Renesans poydevorini qo'ygan bobokalonimiz Amir Temur va uning Temuriylar davlati ham ijtimoiy davlatchilikning o'z davridagi yorqin misolidir. Ijtimoiy davlatning amaliy va hayotiy namunasini biz Amir Temur saltanati misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Temur tuzuklarini o'rganishimiz jarayonida Sohibqironning ijtimoiy siyosati qanchalik mukammal bo'lganiga yana bir bor amin bo'lamiz. Temur o'zining "Kuch - adolatdadir"<sup>5</sup> degan shiori shunchaki so'z emas, balki davlatning tub mohiyati bo'lgan. U o'z saltanatida har bir shahar va qishloqda bepul tibbiyot (shifoxonalar),

<sup>3</sup> Aristotel. Siyosat. – T.: "Yangi asr avlodi", 2015. – B. 130-135.

<sup>4</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1993. – B. 152-160

<sup>5</sup> Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: "O'zbekiston", 2011. – B. 105-112.

ta'lim (madrasalar) hamda muhtojlar uchun ijtimoiy yordam maskanlarini tashkil etgan. Ayniqsa, u o'z qo'l ostidagi xalqning soliq yukini yengillatgani va kambag'allarni davlat himoyasiga olgani hozirgi "ijtimoiy himoya" tushunchasining o'sha davrdagi yuksak ko'rinishi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ijtimoiy davlat shakllantirishning tarixiy asoslari insoniyat sivilizatsiyasining eng sara g'oyalarini o'zida mujassam etgan. Platonning adolati Aristotelning barqarorligi Farobiyning ma'naviyati va Amir Temurning adolatli boshqaruvi - bularning barchasi bugun biz intilayotgan yuksak ijtimoiy jamiyatning poydevoridir. Ushbu merosni o'rganish va hayotga tadbiiq etish biz kabi yosh avlodning muhim vazifasi deb hisoblayman.

Zero, davlat inson uchun, uning qadri va baxti uchun xizmat qilishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: “O‘zbekiston”, 2011.
2. Platon. Davlat. – T.: “O‘zbekiston”, 2013.
3. Aristotel. Siyosat. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 1993.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023.